ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-7-118-124

G‘O‘ZA TUNLAMI (*HELICOVERPA ARMIGERA* HBN.) NING NAMANGAN SHAROITIDA TARQALISHI VA OZUQA O‘SIMLIKLAR BILAN TROFIK ALOQALARI

Shoiraxon Xasanbaevna Yusupova
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Islomjon Ilxomjonovich Zokirov
Farg‘ona davlat universiteti biologiya kafedrasi dotsenti

ANNOTATSIYA

Namangan sharoitida g‘o‘za tunlami (*Helicoverpa armigera* Hbn.) agrotsenozlarning ajralmas qismiga aylangan. Mazkur hududda g‘o‘za tunlami qishloq xo‘jalik ekinlarining jiddiy zararkunandalaridan biridir. Jumladan, mazkur zararkunanda g‘o‘za, tomat, makkajo‘xori, no‘xat, soya o‘simliklariga jiddiy zarar keltirishi aniqlandi. Mazkur hududda g‘o‘za tunlamining 4 avlodi rivojlanadi, birinchi avlodi tabiatda mingdevona (*Hyoscyamus* L.), tugmachagul (*Malva* L.) va ertangi ekinlardan no‘xatda (*Cicer arietinum*) rivojlanadi. Tunlam kapalaklari tuxum qo‘yishda o‘simliklarni tanlash xususiyatiga ega. Ya’ni, hasharotning barcha avlodini to‘liq ta’minlay oladigan va vegetatsiya davri uzun bo‘lgan o‘simliklarga tuxum qo‘yadi. Tuxum qo‘yishda nafaqat o‘simlik turi, balki havoning harorati, namligi va o‘simlikning rivojlanish fazasi ham muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: g‘o‘za tunlami, hasharot, biologiya, ekologiya, agrotsenoz, sabzavot-poliz ekinlari, lichinka, imago, Namangan.

ABSTRACT

The cotton bollworm (*Helicoverpa armigera* Hbn.) have become an integral part of various agrocenoses of condition of the Namangan. *Helicoverpa armigera* is one of the most serious pests of agricultural crops. In particular, the pest was found to cause serious damage to cotton, tomatoes, corn, peas and soybeans. In the conditions of this region, 4 generations of H.armigera develop, the first generation develops in nature from *Hyoscyamus* L., *Malva* L. and *Cicer arietinum* from early crops. Butterflies of H.armigera have the ability to select plants when laying eggs. That is, it lays eggs on plants that can fully provide the entire generation of insects and have a long growing season. Not only plant type but also air temperature, humidity and plant development phase are important factors in egg laying.

Keywords: cotton nightshade, insects, biology, ecology, agrocenosis, vegetable and melon crops, larvae, imago, Namangan.